

XALQARO VALYUTA KREDIT MUNOSABATI

Axmadaliyeva Niholaxon

Teacher of TDIU

N.Valiqulova

Student of TDIU

**Annotatsiya:** O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy maydoni mavqeyi yildan yilga sezilarli darajada o‘zib bormoqda. Hozirda jaxon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o‘zining ma’no mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Buning asosiy jihati shundaki, bizning milliy iqtisodiyotlarimiz tobora integratsiyalashuvi va globallashuvi kuchayib ketmoqda. Biroq har bir mamlakatda iqtisodiy o‘zishni yanada kengaytirishimizda kapitalni to‘plash birinchi o‘rinda turadi. Bunday mablag‘larning ichki manbalari korxonalarining foydasi, davlat byudjeti, aholining jamg‘armalari va boshqalar bo‘lishi mumkin. Agar yuqorida sanab o‘tilgan holatlar mablag‘lar bo‘lmasa davlat tahsi qarz olishiga tog‘ri keladi. Bir davlatning tashqi valyuta oqimiga bo‘lgan oqimi esa xalqaro kreditlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ushbu maqolada esa mana shu munosabatlar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Tashqi savdo, kredit, faktoring, forfeyting.

**Kirish:** Xalqaro kredit jumlasini xalqaro xo‘jalik munosabatlarining tarkibiy qismidir. Xalqaro kredit bu xalqaro transchegaraviy harakati bo‘lib, u qaytarish, muddatlilik, va foiz to‘lash shartlari bilan valyuta va tovar resurslarini taqdim etishdan iborat. Aytib o‘tishimiz joizki xalqaro kredit asosan kapital eksporti shaklida amalga oshiriladi. Xalqaro kreditlarning eng umumiy ko‘rinishida manbalari, maqsadlari, turlari, ssudalar va kreditlar valyutasi, muddati, ta‘minoti va yetkazib berish bo‘yicha tasnifini quyidagi shaklda ifodalash mumkin.

1-Jadval

Xalqaro kredit tasnifi.

Tasniflash xususiyati	Xalqaro kredit shakllari
1.Manbalariga ko‘ra	Ichki. xorijiy(tashqi). aralash.
2.Belgilanishiga ko‘ra	Tijorat(firma), Moliyaviy. Oraliq.
3.Turlariga ko‘ra	Tovar (eksport).

	Valyuta (bank).
4.Qarz valyutasiga ko'ra	Qarzdor mamlakat valyutasida. Kreditor mamlakat valyutasida. Uchinchi mamlakat valyutasida.
5.Muddatlariga ko'ra	Qisqa muddatli (bir yilgacha). O'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha). Uzoq muddatli (besh yildan yetti yilgacha).
6.Ta'minlash darajasi bo'yicha	Ta'minlangan Ta'minlanmagan
7.Yetkazib berish texnikasi bo'yicha	Moliyaviy (naqd). Akseptli. Obligatsiyali. Depozit sertifikatlari.

Yuqoridagi jadvalni yoritib beradigan bo'lsak, taminoti bo'yicha xalqaro kreditlarni tasniflovchi 6-band.<sup>1</sup>

Valyuta ham pul, ammo hamma vaqt ham pul valyuta bo'lavermaydi. Agarda muayyan bir davlatning milliy pul birligi jahon bozorida davlatlar o'rtasida pul sifatida ishlatilsa, ya'ni pulning funksiyalarini bajarsa, u valyutaga aylanadi. Valyuta jahon bozorida, davlatlar o'rtasidapul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklaridir. Masalan, Amerika Qo'shmaShtatlari "dollari", Buyuk Britaniya "funt sterlingi", Kanada "dollari", Fransiya "franki", Yapon"ienasi" va boshqa shu kabilar. Muayyan bir davlatning milliy puli - uning milliy valyutasi

bo'ladi. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa - xorijiy valyutalardir.<sup>2</sup>

Xalqaro kreditning bir qator foydali bo'lgan taraflari mavjud bo'lib ular quyidagicha:

1. Moliyaviy rivojlanishni oshirish: Xalqaro kreditlar, mamlakatlar va korxonalar uchun moliyaviy resurslarni o'zaro almashish imkoniyatini yaratadi va bu esa iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.
2. Savdo aloqalarini rivojlantirish: Xalqaro kreditlar, savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va mamlakatlar orasidagi savdo operatsiyalarini osonlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PF-51-son farmoniga 6-ilova

<sup>2</sup> 1 Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari/ darslik. T. Babakulov, U.Abdullayev.- Toshkent: "Sano - standart", 2014,232 b

3. Investitsiyalar kiritish imkoniyati: Xalqaro kreditlar, mamlakatlarga va korxonalarqa boshqa mamlakatlardan investitsiyalar kiritish imkoniyatini yaratadi va bu esa iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.
4. Risklarni almashish: Xalqaro kreditlar, risklarni almashish imkoniyatini ta'minlaydi va moliyaviy munosabatlarni qattiqlashtiradi.
5. Transparensiya va tartib: Xalqaro kreditlar, qonuniy va moliyaviy tartibga solingan shartlar asosida amalga oshiriladi va munosabatlarni transparensiya bilan amalga oshiradi.

Bular xalqaro kreditning yaxshi taraflaridan faqat ba'zi namunalardir va xalqaro kreditlarning foydali tomonlari mavjudligiga qarab, moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rolni o'ynaydi.

Xalqaro kredit aslida feodalizm davrida paydo bo'lgan. Bu davrlarda harbiy yurishlarni hamda monarxlar va zodagonlarning saroylariga tegishli xarajatlarini qoplash uchun boshqa mamlakatlardan qarzga mablag'lar olingan. Dastlab ssuda mablag'ini chetga chiqarish aksariyat xususiy shaklda amalga oshirildi. Keyinchalik esa bunday faoliyat "xalqaro kredit" munosabatlariga tobora ko'proq aralasha boshlagan hukumatlar ya'ni davlatlar tomonidan rag'batlantirila boshlandi. Xalqaro kreditga oid huquqiy munosabatlar shunday shartnomaviy munosabatki, undabirtaraf chet el elementi, ya'ni chet el mamlakatining banklari, firmalari, kompaniyalari, yuridik va jismoniy shaxslari, Trans Milliy Korporatsiyalari va chet davlatning o'zi boshqa davlatga, uning yuridik va jismoniy shaxslariga foizlar hisobida, shartnomalarda belgilangan muddatlarda qaytarish sharti bilan beradigan kreditga oid munosabatlardir.<sup>3</sup>

Xalqaro kredit asosan iqtisodiy qonunlar talabidan kelib chiqib, bozor iqtisodiyoti subyektlarining daromad olishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Tarixan xalqaro kredit aloqalari xalqaro savdoga qo'llanilgan, mantiqan esa sarmoya harakatiga xususiy sarmoyaning rivojlanayotgan mamlakatlar olamiga so'nggi yillarda to'liq asosan iqtisodiyot taraqqiyotida yutuqlarga erishgan mamlakatlarga yetib keldi. Tashqi investitsiya qarzlarning bir toifasi xalqaro moliya muassasalari u yoki bu mamlakatdagi investitsiya loyihalarini kreditlashi mumkin. O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashni amalga oshirishda ko'maklashuvchi eng nufuzli xalqaro banklar bo'lib, ular qatoriga Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banklarini kiritish mumkin. Shuni ham aytib o'tish joizki, chetdan olingan qarz muayyan tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi, shuning uchun davlat yoki xususiy tarmoq doirasida chet el investitsiyalaridan oqilonafoydalanilmaslik mamlakatga juda qimmatga tushishi mumkin.

Xalqaro kredit aslida feodalizm davrida paydo bo'lgan. Bu davrlarda harbiy yurishlarni hamda monarxlar va zodagonlarning saroylariga tegishli xarajatlarini qoplash uchun boshqa mamlakatlardan qarzga mablag'lar olingan. Dastlab ssuda mablag'ini chetga chiqarish aksariyat xususiy shaklda amalga oshirildi. Keyinchalik esa bunday faoliyat "xalqaro kredit" munosabatlariga tobora ko'proq aralasha boshlagan hukumatlar ya'ni davlatlar tomonidan rag'batlantirila boshlandi. Xalqaro kreditga oid huquqiy munosabatlar shunday shartnomaviy munosabatki, undabirtaraf chet el elementi, ya'ni chet el mamlakatining banklari, firmalari, kompaniyalari, yuridik va jismoniy shaxslari, Trans Milliy Korporatsiyalari va chet davlatning o'zi boshqa davlatga, uning yuridik va jismoniy shaxslariga foizlar hisobida, shartnomalarda belgilangan muddatlarda qaytarish

sharti bilan beradigan kreditga oid munosabatlardir. Xalqaro kredit asosan iqtisodiy qonunlar talabidan kelib chiqib, bozor iqtisodiyoti subyektlarining daromad olishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Tarixan xalqaro kredit aloqalari xalqaro savdoga qo'llanilgan, mantiqan esa sarmoya harakatigaxususiy sarmoyaning rivojlanayotgan mamlakatlar olamiga so'nggi yillarda to'liq asosaniqtisodiyot taraqqiyotida yutuqlarga erishgan mamlakatlarga yetib keldi.

## **Foydalanilgan ro'yxati**

1. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari/ darslik. T. Babakulov, U.Abdullayev.- Toshkent: "Sano - standart", 2014;
2. Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2004;
3. *Xalqaro valyuta krdit munosabatlari R.R.Tojiyev, 2009*